

**OGAHY SHE'RIYATI-HAYRAT SHE'RIYATIDIR****Ruxsora Shukurova Abdulhofiz qizi***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**xalqaro jurnalistika yo'nalishi**2- bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: PhD. M. Ortiqova*

Annotatsiya: *Ogahiy she'riyatining XIX asrdagi adabiyotimizga bergan yana bir ibratli sabog'i bor: bu she'riyatdagi uslubiy ravonlik, xalq ijodi an'analariga yaqinlik, tildagi turfa ifodalilik va bo'yoqdorlik hamda tasviriylikdir. Moqolada shoir she'riyatida so'zning o'rni, nazmining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ogahiy lirikasi, masnaviy, g'azal, Taviz-ul oshiqin, Ashori forsiy, taxmis san'ati.*

Ogahiyning ijodiy-ilmiy merosi boy va rang barang bo'lib, keng ko'lami va mazmunan teranligi bilan kishini hayratga soladi. Muhimi shundaki, Navoiydan keyin adabiyotimiz tarixida bunchalik ko'lamdor va badiiy yuksak ijod ilk bor vujudga keldi. Ogahiyning lirik merosi o'zbek va fors tillarida yaratilgan "Taviz-ul oshiqin" (Oshiqlar tumori) va "Ashori forsiy" devonlarida jamlangan bo'lib, 22 janrga oiddir. Bular orasida g'azal, muxammas va ruboiy asosiy o'rin egallaydi, 84 ta muxammasning 31 tasi Navoiy g'azallariga bitilgan bo'lib, bu hol Ogahiyning Navoiyga bo'lgan ehtiromidan bir nishona.³⁸ "Ogahiy o'zbek adabiyotida muxammas janri va taxmisning asoschisi" sifatida tan olinishi ham tasodifiy emas³⁹.

Ogahiy she'riyatining muhim fazilatlaridan yana biri shuki, unda faqat sevgi va sadoqatgina kuylanmaydi, balki o'z davrining qator muhim ijtimoiy muammolari-xalqparvarlik, vatanni sevish, ahillik, do'stlik ham tarannum etiladi. Bu esa she'riyatda an'anaviy mavzuning kenggayishiga sabab bo'ladi. Ogahiy she'riyati-hayrat she'riyatidir. Sal kam 20 ming misradan iborat bu nazm xazinasidagi ma'no durdonalariyu badiiyat injulari chorak kam ikki asrdan beri kishilar qalbiga shuur, diliga ziyo bag'ishlab kelmoqda. Uning g'azallarini mutolaa etganingiz sari mehringiz oshib boraveradi, chunki Ogahiy har bir so'zga zargarlardek sabr va sobitlik bilan sayqal beradi. U har bir so'zdan o'rinli foydalanadi. Chunki, muomalat dunyosining tirikligi bo'lmish so'z hamisha soz ohanggi ila xushmavzunlik kasb etadi. Ogahiyning "So'z dur inson ko'nglida bir gavhari qiymatbaho" deyishida hikmat ko'p, negakim, "Bilmagan o'z qadrini ne bilgusi so'z qadrini", deydi. Ogahiy bitiklaridagi serjilo ohang, musiqiy munavvarlik alohida tahsinga loyiq. Shoir g'azallarining beixtiyor kuyga solib

³⁸ Ogahiy asarlarining tavsifi. Tuzuvchi F. G'anixo'jaev Toshkent, 1986, 81-b

³⁹ Adabiy turlar va janrlar. 2-jild, lirika, Toshkent., 1992



o'qilishi, uning qalbi soz ila yo'g'rilganidandir. Qarang, ham mantiqan ma'qul, ham kuyga tushib ketaveradi.

Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasin netay,
Ohima ham shunora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay.

Ogahiyning salohiyat saodatining ulkan cho'qqisiga olib chiqqan fazilat ham sermazmun ijod, serqirra mushohada ko'lamining kengligidir. Darhaqiqat, shoirning g'azaliyoti, uning nazm nahri, yurtga jon baxshida etib turadigan shiddatli daryoga o'xshatiladi.

Shoir she'riyatining yangicha uslublaridan biri-musoviyat-tarafayn bo'lib, to'rtlikning har misrasi o'ngga qarab ham, pastga qarab ham bir xil o'qiladi. Ogahiyning quyidagi musoviyattarafayn usulida yozilgan she'ri adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan hodisalardan biridir.

Ul sho'xi ochildi xatu ruxsori,
Ochildi riyohinda yuzi gulnori
Xatu yuzi besabru qarori manman
Ruxsori gulnori manman zori.

Ogahiy g'azaliyotini kuzatar ekanmiz, shoir har bir so'zni o'ta mas'uliyat bilan tanlab, o'z o'rnida mohirona ishlatganining, har bir lafz va iboraga ma'lum bir ma'no va mazmun yuklaganligining guvohi bo'lamiz. Eng avvalo shoir so'z va uning badiiy ijodda tutgan o'rniga katta e'tibor beradi. Qator masnaviy, g'azal, ruboiy va qit'alarida insonning ongli faoliyatida til va so'zning muhim ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Shoirning "Insonga so'z", "Gavhar so'z", "Til", radifli g'azallarida tilning nihoyatda muhim ijtimoiy hodisa ekanligi, har bir so'zni o'z o'rnida hamda bilib qo'llash zarurligi uqtiriladi.

Ey ko'ngil, odam xayol aylab, dema nodonga so'z,
Chunki ul inson emas, topsang, degil insonga so'z.⁴⁰

Ogahiy uchun she'riyatda shakl bilan mazmunning o'zaro mutanosibligi asosiy mezon hisoblanadi. Shoirning fikricha, faqat ilg'or xalqparvar g'oyalarga xizmat qiluvchi, badiiy jihatdan pishiq va mazmundor she'riyat abadiy qoladi. U o'z oldiga yuqori mas'uliyat qo'yadi va bu fikrni quyidagicha ifodalaydi.

Ogahiy, nazming aro dilso'z mazmun bo'lmasa,
Soda ash'oring bilan devonu daftardin ne haz.⁴¹

Ogahiyning nazmlari ijtimoiy, siyosiy, axloqiy-falsafiy ma'nolarning mujassamlashuvidan yaralgan voqeaband she'riyatdir. Shoir ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisot "zanjir" larini bir-biriga shunday mohirlik bilan bog'laydiki, natijada o'quvchi johil va xudbin mansabdorlardan, mulk, millat va yurt boshiga qanday ofatlar yog'ilishini jonli manzaralar bilan anglash imkoniga erishadi. Ogahiy g'azallari o'zining

⁴⁰ O'sha qo'lyozma, 86-b

⁴¹ Adabiy turlar va janrlar. 2-jild, lirika, Toshkent., 1992



ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan yetukligi bilan adabiyot bo'stonida o'zining alohida o'rniga ega.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti-"aviz ul-oshiqin"(Oshiqlar tumori), bizgacha to'la yetib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzulgan, 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mullama, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida-jami 18000 misradan iborat. Ko'rishimiz mumkinki, Ogahiy bizga mana shunday katta nazm durdonalarini qoldirgan mutafakkirlarimizdan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiyning lirik me'rosi ijodining salmoqli qismini tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan she'riy parchalarda mavzularning rang- barangligini ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan fikrlarga tayangan holda, shoirning til va tarbiya bilan birga lirikasida so'z qo'llash masalasiga alohida ahamiyat qaratganining guvohi bo'lamiz. Ogahiy nazmlari o'zida olam-olam ma'noni jamlagan ulkan adabiy me'rosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek og'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.: G'ofur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971
2. Komilov N. Tasavvuf, T., 1996 y.
3. O'sha qo'lyozma, 86-b
4. Ogahiy asarlarining tavsifi. Tuzuvchi F. G'anixo'jaev Toshkent, 1986, 81-b
5. Adabiy turlar va janrlar. 2-jild, lirika, Toshkent., 1992
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-ogahiyning-shaxsiyati-va-sheriyati-xususida-ogahiy-devon.html>